



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 181 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI	36
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
PSIXOGISTALOGIYANING YANGI YO'NALISH SIFATIDA YUZAGA KELISHI ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI	41
Azimov.J.S., Melibayeva R.N.	
KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	44
Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi	
BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	47
Kurbonov Munis Umirbekovich	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	52
Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi	
SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TURLARI VA YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI	56
Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li	
PROFIL ORTIDAGI "MEN" RAQAMLI SHAXSIYAT VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI.....	60
Azizova Shodiya Utkur qizi, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	
OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL.....	63
Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi	
YOSH MUTAXASSISLARINING KASBIY MOSLASHUV MEXANIZMLARI	68
Shodiyeva Rayhon Saydullayevna	
SALBIY EMOTSIONAL KECHINMALARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI	75
Mirabdullayeva Sh. A.	
GLOBALLASHUVNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	79
Raxmatova Zamira Baxtiyorovna	



ВЛИЯНИЕ СТИЛЕЙ ПРИВЯЗАННОСТИ РОДИТЕЛЕЙ НА ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ПРАКТИКИ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ С ДЕТЬМИ.....	83
Шомуродова Махфуза Аслитдиновна	
BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY DINAMIK RIVOJLANISHIDA SHAXS IJTIMOIYLASHUVI VA ADAPTIV INTELLEKT MUAMMOSI.....	88
Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna	
LOGOTERAPIYA USULIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH.....	93
Narziqulova Gulrux Axrorovna	
O'ZINI O'ZI TUSHUNISH TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI	98
Mahmudov Abdurasul	
ICHKI LOKUS NAZORATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI O'QUVCHILARDA MUVAFFAQIYAT MOTIVATSIYASINI KUCHAYTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	102
Karimov Sherzod Abdurasulovich	
SPORT FAOLIYATIDA YUZAGA KELADIGAN STRESS OMILLARI PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	106
Nazarov Davron Baxtiyor o'g'li	
YOSH KELINLAR PSIXOEMOTSIONAL HOLATIDA STRESS VA MOSLASHUV JARAYONLARI	111
G'afforova Dilfuza Jo'rayevna	
RAHBAR AYOLLAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	114
Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna	
O'SMIR RUHIY FAROVONLIGIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR.....	118
Mustafayeva Muxlisa	
KEKSA ODAMNING PSIXOLOGIK HOLATI KOMPLEKS REABILITATSIYA KOMPONENTI SIFATIDA.....	122
Rustamova Manzura Ne'matjanovna	
KOMMUNIKATIV KOMPITENTLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI	126
Tajibayev Shohruh Maqsudovich	
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ВУЗА КАК СИСТЕМА САМООРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА.....	131
Рахманова Диляра Рустемовна	
ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КАЗАХОВ И УЗБЕКОВ	136
Айдарова Диана Смутуллаевна	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ КОМПЛЕКСА НЕПОЛНОЦЕННОСТИ У ПОДРОСТКОВ	138
Халмуратова Дилором	
TA'LIM SOHASIDA OROLBO'YI IQLIMIGA SHAXSNING MOSLASHUV STRATEGIYALARINI O'RGANILISHI.....	142
Jumamuratova Guljayna Kenesbayevna	
INSON RESURLARINI RIVOJLANTIRISH YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING BOSH OMILI SIFATIDA.....	145
Axmedov Alisher Gayrat o'g'li	
TARBIYACHI PEDAGOGNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	150
A.K.Shamshetova	
AFFILIATSIYA MOTIVINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDI O'RGANILISHI	153
Samatova Sevara G'ayratovna	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	157
Yadgarova Ozoda Ibragimovna	
MILLIY TARBIYANING PSIXOLOGIK METADOLOGIK ASOSLARI	160
Jabborov Xazrat Xusenovich	
SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHITNI YARATISHDA TOLERANTLIKNING O'RNI	166
Nazaraliyeva Marxabo Xayitboyevna	



TALABALARDA BAXTLI OILA TO'G'RISIDAGI TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	171
Abdurayimov Sardorbek Odiljon o'g'li	
OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOIIY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL.....	175
Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi	



TALABALARDA BAXTLI OILA TO'G'RISIDAGI TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



Abdurayimov Sardorbek Odiljon o'g'li

University of Business and Science universiteti,
Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi. (PhD)
Email: sardorabdurayimov33@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba yoshidagi shaxslar ongida baxtli oila to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanish jarayoni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda oila instituti, nikoh, va oilaviy baxtga oid qarashlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar — ota-ona oilasi, ijtimoiy-madaniy muhit, shaxsiy qadriyatlar tizimi hamda gender identifikatsiyaning roli ilmiy asosda yoritilgan. Olingan natijalar zamonaviy talabalarda oilaviy qadriyatlarning individuallashtirilgan talqini kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, bugungi kunda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash maqsadida psixologik-pedagogik dasturlar va o'quv kurslari joriy etilayotgani alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: baxtli oila, talabalar, oilaviy tasavvurlar, psixologik xususiyatlar, nikoh qarashlari, oilaviy qadriyatlar.

Abstract: This article explores the psychological characteristics underlying the formation of students' perceptions of a happy family. The study examines both institutional and personal determinants influencing their understanding of marriage and family well-being, emphasizing the role of the parental family, socio-cultural context, personal value system, and gender identity. The findings indicate a growing individualization of family perceptions among modern youth. Moreover, the article highlights the introduction of educational initiatives and family psychology courses designed to prepare students for building harmonious family relationships.

Key words: happy family, students, family perceptions, psychological characteristics, marriage attitudes, family values.

Аннотация: В статье рассматриваются психологические особенности формирования представлений о счастливой семье у студентов. В исследовании анализируются институциональные и личностные детерминанты восприятия брака и семейного счастья, включая влияние родительской семьи, социокультурной среды, системы личных ценностей и гендерной идентичности. Полученные результаты свидетельствуют о тенденции к индивидуализации семейных представлений среди современной молодежи. Отдельное внимание уделяется действующим образовательным программам и курсам по семейной психологии, направленным на подготовку студентов к построению гармоничных семейных отношений.

Ключевые слова: счастливая семья, студенты, семейные представления, психологические особенности, брак, семейные ценности.

KIRISH

Inson hayotining muhim jihatlardan biri bu — oiladir. Oila nafaqat jamiyatning eng kichik ijtimoiy birligi, balki shaxsning shakllanishi, rivojlanishi va ijtimoiylashuvi uchun asosiy muhit hisoblanadi. Har bir inson, ayniqsa, yoshlik davrida — o'ziga xos orzu-umidlar, qadriyatlar va hayotiy qarashlar asosida baxtli oila timsolini shakllantira boshlaydi. Ayniqsa, talabalik davri shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim bosqichi bo'lib, bu davrda yoshlarning oila haqidagi tasavvurlari yanada aniqroq va mukammalroq tus oladi.

Talabalarda baxtli oila to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishiga turli omillar — oilaviy muhit, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy tajriba, shaxsiy ehtiyojlar, psixologik holat va atrof-muhit ta'sir etadi. Bu tasavvurlar esa

ularning keyingi hayotiy tanlovlari, oila qurishga bo'lgan munosabati, turmushga tayyorgarligi va nikohdagi muvaffaqiyat darajasini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu maqolada talabalik davridagi yoshlarning baxtli oila haqidagi tasavvurlarining shakllanishi, unga ta'sir etuvchi psixologik omillar, shuningdek, bu jarayonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, mavzuga doir zamonaviy yondashuvlar va psixologik tadqiqotlar asosida baxtli oila konsepsiyasining mazmuni va uning talabalik davridagi aks etishi o'rganiladi. Ushbu maqola talaba yoshidagi shaxslarda baxtli oila to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanish xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan mavzular namoyon bo'ladi. Tadqiqotda zamonaviy talabalarining oila instituti, nikoh va oilaviy baxt haqidagi qarashlarining psixologik asoslari tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarining oilaviy tasavvurlariga ota-ona oilasi, ijtimoiy-madaniy muhit, shaxsiy qadriyatlar va gender o'ziga xoslik katta ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda yoshlarni oilaga tayyorlash yuzasidan bir qator dastur va loyihalar ishlab chiqilayotganligi barchamizga ma'lum. Talabalarni oilaga tayyorlash va oilaviy hayotni o'rgatish maqsadida oila psixologiyasi darslarni joriy qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Baxtli oila tushunchasi psixologiya, sotsiologiya va pedagogika fanlarining qator tadqiqotlarida turli nuqtai nazarlardan tahlil etilgan. Psixologik yondashuvga ko'ra, oila shaxsning psixik rivojlanishida asosiy omil bo'lib, u insonning qadriyat tizimi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuv darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi (V. Satir, 1990; E. Fromm, 1956).

Erich Fromm o'zining "Sevgi san'ati" asarida baxtli oila munosabatlarining asosida o'zaro hurmat, mas'uliyat, g'amxo'rlik va tan olish yotishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, oila – bu shunchaki ijtimoiy birlik emas, balki ichki emotsional ehtiyojlarning qondiriladigan muhitidir.

Virginia Satir esa oila psixoterapiyasi asoschilaridan biri sifatida oilaviy tizimning o'zaro muloqot sifatiga alohida e'tibor qaratadi. U baxtli oilani ochiq va sog'lom kommunikatsiyaga ega bo'lgan tizim sifatida talqin qiladi.

Mahalliy olimlar orasida, G.G'. Qodirova va Z.E. Raxmonqulovalarning oila psixologiyasiga oid tadqiqotlarida o'zbek oilasining mental xususiyatlari, gender stereotiplari va oilaviy qadriyatlar tizimi yoritilgan. Ularning fikricha, talabalik davrida shakllanadigan oila haqidagi tasavvurlar bevosita shaxsning o'z oilasidagi tajribalari va atrof-muhitdan olgan axborotlarga bog'liq.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa yoshlarning baxtli oila haqidagi tasavvurlariga ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va ommabop madaniyatning kuchli ta'siri borligi aniqlangan. Jumladan, Yoshlar psixologiyasi (2022) nomli kollektiv monografiyada qayd etilishicha, virtual makon orqali yoshlarning oila haqidagi ideal tasavvurlari ko'pincha real hayotdagi vaziyatlardan farq qiladi va bu esa turmushga tayyorgarlik jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasida yoshlarning identitet shakllanishi va yaqin munosabatlar o'rnatish bosqichlari talabalik davriga to'g'ri keladi. Bu esa baxtli oila haqidagi tasavvurlar aynan shu bosqichda shakllanishini tasdiqlaydi.

Zardushtiylikning muqaddas bitigi – "Avesto"da ham oila va nikoh axloqlari, ota-onalar hamda farzandlar o'rtasidagi munosabat, ularning burch va majburiyatlari haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Uylanish va kelinning fazilatlarini xususidagi qimmatli qarashlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shuningdek, "Avesto"da oilaviy munosabatlar, er-xotin burchlari va farzand tarbiyasi borasida bir qator muhim tamoyillar ilgari surilgan. Unda qarindoshlar o'rtasida oila qurish qat'iyan taqiqlangan bo'lib, bu qavm va urug' qonini toza saqlash, avlodning sog'lom va barkamol bo'lishi uchun muhim sanalgan.

"Sharq mutaffakirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo'lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, haqgo'ylik kabi qator fazilatlarini barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga insoniy munosabatlardanamoyon bo'ladigan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar" Demak barcha davrlarda oila shaxsning baxt va totuvlik manbai sifatida o'rganilgan va o'rganilib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, baxtli oila tushunchasi subyektiv va madaniy jihatdan shartlangan bo'lib, uning shakllanishida psixologik, ijtimoiy va kommunikativ omillar kompleks ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli talabalik davrida bu tasavvurlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish zamonaviy psixologik tadqiqotlar uchun dolzarb bo'lib qolmoqda.



Abraham Maslowning motivatsiya nazariyasiga ko'ra, inson o'zining sevgi, yaqinlik va tegishlilik ehtiyojlarini qondirish orqali o'zini to'laqonli rivojlantiradi. Oila esa bu ehtiyojlarni qondiradigan asosiy ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi (Maslow, 1943). Shuning uchun ham talabalarning baxtli oila haqidagi qarashlari ularning ehtiyojlariga, umidlariga va individual tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Bronfenbrennerning ekologik rivojlanish nazariyasida shaxs rivojiga makro (madaniyat), ekzoso (ijtimoiy muhit), mezo (oila va do'stlar), va mikro (bevosita aloqa) tizimlarning ta'siri alohida ta'kidlanadi (Bronfenbrenner, 1979). Bu yondashuvga ko'ra, talabaning oila haqidagi tasavvurlari uning oilaviy muhitidan tashqari, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, tengdoshlar va ta'lim tizimi orqali shakllanadi.

Fromm (1956) va Satir (1990) kabi psixologlar oila ichki aloqalari va emotsional salomatligining sifatini baxtli oila tushunchasining markaziga qo'yadilar. Fromm oilani "emotsional boshpanalar"dan biri sifatida ta'rifladi, Satir uning kommunikativ barqarorligini asosiy omil sifatida ko'rsatadi.

Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, talabalik yoshdagi shaxslar "yaqinlikka erishish yoki izolyatsiyaga tushib qolish" bosqichidan o'tadi. Bu bosqichda ular munosabatlar o'rnatish, nikoh haqida qarorlar qabul qilish, ideal oila modelini shakllantirish bilan shug'ullanadilar. Demak, baxtli oila to'g'risidagi tasavvurlarni aynan shu davrda shakllantiruvchi omillarni chuqur o'rganish dolzarbdir.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda talabalarda baxtli oila haqidagi tasavvurlarni shakllantirish jarayonining psixologik xususiyatlarini o'rganish maqsad qilingan. Baxtli oila tushunchasi, oila psixologiyasi, talabalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi bo'yicha mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar va nazariy manbalar tahlil qilinadi

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Baxtli oila tushunchasi asosan oilaviy munosabatlarning sifatiga, o'zaro hurmat, mehr-muhabbat va ishonchga asoslanadi. Oilada har bir a'zoning ruhiy holati, o'zaro muloqoti va bir-birini tushunishi oilaning umumiy farovonligini ta'minlaydi. Oila psixologiyasida oilaviy muhitning insonning ruhiy holatiga, psixologik barqarorligiga ta'siri katta ahamiyatga ega. Oila psixologiyasi nazariy manbalarida oilaning ijtimoiy-psixologik funksiyalari — a'zo shaxslarning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi muhim jihatlar sifatida ko'riladi. Shuningdek, oiladagi muammolar, nizolar va stresslar individual a'zolarning psixologik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi qayd etilgan.

Talabalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi esa ularning oilaviy muhit, o'qish muhiti va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlangan. Talabalarning ijtimoiy ko'nikmalari, muloqot qobiliyati va hissiy barqarorligi ularning oiladagi munosabatlari, ota-ona e'tibori va do'stlik aloqalari bilan chambarchas bog'liq. Oiladagi ruhiy qo'llab-quvvatlash va ijobiy muhit yoshlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, baxtli oila kontseptsiyasi ko'proq oilaviy a'zolar o'rtasidagi iliq munosabatlar, bir-biriga hurmat va ishonchga asoslanadi. Oilada yuzaga keladigan nizolarni hal etishdagi psixologik madad va maslahatlar farovonlikni oshirishga xizmat qiladi. Talabalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi oiladagi ijobiy muhit va qo'llab-quvvatlash orqali yaxshilanadi.

Oilaviy munosabatlardagi muammolar, garchi yoshlarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qilsa-da, ular psixologik yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali yengillanishi mumkin. Shu bilan birga, pedagogik va psixologik ta'lim muassasalari talabalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim muhitida yaratilgan sog'lom ijtimoiy aloqalar va qo'llab-quvvatlash tizimlari yoshlarning ruhiy holatini barqarorlashtiradi va ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

"Talabalarda baxtli oila to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining psixologik xususiyatlari" mavzusi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishining natijalari asosida umumiy xulosalar yaratildi:

1. Yigit va qizlarning baxtli oilaviy hayot komponentlari haqidagi tasavvurlarini shakllanishiga ta'sir qiluvchi xususiyatlar, empirik tarzda tizimli psixologik jihatlar aniqlandi;

2. Baxtli oila omillari haqidagi talabalarning subyektiv tasavvurlarining o'ziga xosligi mazmuni, jumladan, oilaviy rollarning taqsimlanishiga bo'lgan munosabati, nikohdagi intilishlarning tabiati, rolni kutish orqali ushbu xususiyatlar dalillandi;

3. Baxtli oilaviy munosabatlarning hal qiluvchi omillari haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga ota-onalarning munosabati va qadriyat yo'nalishlarining ta'siri asoslandi;

4. Talabalarda baxtli oilaning psixologik xususiyatlari haqida adekvat tasavvurlarni shakllantirishning psixologik qo'llab-quvvatlash modeli ishlab chiqildi.



5. Turmush qurmagan talaba qizlar sevgi, mehr-muhabbat hamda oilaviy farovonlik eng muhim omillar sifatida baholangan. Shuningdek, moddiy ta'minlanganlik va ota-onaning farovonligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uy sharoitidagi qulaylik va tinchlik hamda oilaviy an'analar va diniy qadriyatlar nisbatan pastroq o'rinda turgan bo'lsa-da, sezilarli darajada muhim hisoblanadi.


6. Turmush qurmagan yigitlar uchun eng muhim omillar: farzandlarning sog'ligi va baxti, sevgi va mehr-muhabbat, ota-onaning farovonligi, oilaviy farovonlik, uy sharoitida qulaylik va tinchlik, bu esa, turmush qurmagan yigitlar uchun hissiy va iqtisodiy barqarorlik muhimligini ko'rsatadi. Ular oila qurish jarayonida sevgi va ishonchni, balki moddiy va ruhiy barqarorlik, ota-onalari farovonligini ahamiyatli deb qaraydilar.

Talabalarda baxtli oila tushunchasining shakllanishiga ko'plab psixologik va ijtimoiy omillar – shaxsiy tajriba, oilaviy muhit, madaniy qadriyatlar, gender stereotiplari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar ta'sir etadi. Shuningdek, psixologik rivojlanish nazariyalari (Erikson, Maslow, Bronfenbrenner va boshqalar) asosida bu jarayonning murakkab va bosqichma-bosqich kechishi ilmiy asoslangan.

Baxtli oila haqidagi tasavvurlar nafaqat individual e'tiqod va ehtiyojlar asosida, balki ijtimoiy-madaniy muhit ta'sirida shakllanadi. Shu sababli, talabalarda sog'lom, realistik va ijobiy oilaviy model tasavvurini shakllantirish psixologik-ma'rifiy ishlar orqali qo'llab-quvvatlanishi lozim. Bu esa nafaqat ularning shaxsiy farovonligiga, balki kelajakdagi oilaviy barqarorlik va jamiyatning ijtimoiy salomatligiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fromm, E. (1956). The Art of Loving. New York: Harper & Row.
2. Satir, V. (1990). Conjoint Family Therapy. Palo Alto, CA: Science and Behavior Books.
3. Erikson, E. H. (1963). Childhood and Society. New York: Norton
4. Qodirova, G'. G'. (2016). Oila psixologiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
5. Raxmonqulova, Z. E. (2019). Yoshlar psixologiyasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
6. Yoshlar psixologiyasi. (2022). Kollektiv monografiya. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. Bronfenbrenner, U. (1979). The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge, MA: Harvard University Press.
8. Erikson, E. H. (1963). Childhood and Society (2nd ed.). New York: W. W. Norton & Company.
9. Fromm, E. (1956). The Art of Loving. New York: Harper & Row.
10. Zardushtiylikning muqaddas kitobi"AVESTO" Asqar Mahkam tarjimai. Toshkent: 2001.



13.00.00	Pedagogika fanlari
13.00.01	Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03	Maxsus pedagogika
13.00.04	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05	Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06	Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07	Ta'limda menejment
13.00.08	Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09	Ijtimoiy pedagogika
07.00.00	Tarix fanlari
19.00.00	Psixologiya fanlari
01.00.00	Fizika-matematika fanlari
02.00.00	Kimyo fanlari
03.00.00	Biologiya fanlari
09.00.00	Falsafa fanlari
10.00.00	Filologiya fanlari
11.00.00	Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.